

**ERKIN MALIKNING "SHAYTONVACHCHANING NAYRANGLARI"  
ASARI KOMPOZITSIYASI VA BADIY G'UYASI**

*Abdurahmonova Gulorom Iskandar qizi*

*Termiz davlat universiteti 2 - bosqich talabasi*

*+998912440253*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yozuvchi Erkin Malikning "Shaytonvachchaning nayranglari"(1-kitob) asarida kompozitsiya, asar ekspozitsiyasi, xarakterlari va ichki konfliktlar hamda obrazlar tasviri bilan bir qatorda asarning ham tarbiyaviy, ham ta'limiy jihatdan yozuvchining mahoratini yoritib berish ko'zda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** kompozitsiya, ekspozitsiya, xarakterlararo va ichki konfliktlar, obrazlar tasviri, ham tarbiyaviy, ham ta'limiy jihatlar...

**Annotation:** In this article, the writer Erkin Malik's "Tricks of Shaytonwachcha" (part 1) is intended to illuminate the author's skills in the educational and educational aspects of the work, along with the composition, exposition of the work, characters and images of internal conflicts and images.

**Keywords:** composition, exposition, inter-character and internal conflicts, depiction of images, educational and educational aspects...

Yozuvchi Tohir Malik "Shaytonvachchaning nayranglari"ga ta'rif berar ekan: "Atrofimizda shaytonlar boshqaradigan olam bor" deb ta'kidlaydi. Biz yashayotgan ushbu zaminda teppa-teng huquqli va aytish joiz bo'lsa, to qiyomat kunigacha hukmronlik qiladigan shaytonlar borligi, ularning butun hayotlik davri Alloh mukarram qilib qo'ygan inson zotini yo'ldan urish, to'siqlar, sinovlar kelganda ularning gunoh ish qilishlari uchun jidd-u jahd bilan harakat qilishlari va shuning bilan birga shayton nayranglariga duch kelganda ularni qanday yengib o'tish, qarshi kurasha olish kabi holatlar mahorat bilan yoritib berilgan.

Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo(s.a.v) har bir odam bolasi musulmon holida dunyoga keladi, keyinchalik ota-ona tarbiyasi yoki boshqa holatlarga qarab yo hidoyat topishini yo kofirlik botqog'iga botishini marhamat qilganlar. Inson zoti paydo bo'libdiki, shayton unga dushman. Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvilishlariga ham xuddi shu alayhi la'naning qo'li borligi bizga tarixdan ma'lum. Biroq Payg'ambarimiz ta'kidlaganlaridek qachonki va qayerdagi, to'g'ri tarbiya ustun ekan, u yerda shayton hukmronligiga o'rin yo'q.

To'rt qismga bo'lingan "Shaytonvachchaning nayranglari" asaridan oldin ham bir qator ushbu mavzuga oid asarlar yaratilgan ekan. Ammo bolalar adabiyotiga qirq yildan

beri mehnat qilib kelayotgan Erkin Malik yuqorida ta'kidlangan tarbiya masalasini bola ongiga qanday to'g'ri singdirish yo'lini o'z asari bilan ko'rsatib berdi.

Asar dastlab, bir oila muhitida kurtak otib, keyinchalik butun jamiyatga qiron keltirmoqchi bo'lgan Shaytonvachchanning tug'ilishi bilan boshlanadi. Odatiy kundalik hayot, muhit atmosferasida insonlarning harakatlarida o'zlariga qarshi qurol qilib qo'llashga uringan shaytonlar hamda savob amallar, yaxshi ishlar, shirin kalomlari ila bu maxluqlarni tumtaraqay qochiradigan, burchakka yopishtiradigan, farishta misol insonlar bilan yozuvchi kurash usulini ustalik bilan ko'rsatadi.

Birgina bolalarning shifoxonaga tushib qolishlari voqeasi bilan boshlangan va barchaga bir umrga tanish, qadrdon bo'lib qolgan Bismillo xola, bog'chada bolalarning haqlariga nohaq qo'l cho'zgan va oqibatda bog'chadan haydalgan insofsiz, dinoyansiz bo'lgan faqat mushkul ahvolda qolgandagina Allohni yoqalaydigan ayolning quvilishi, o'rniga iymonli birovning haqqidan hazar qiladigan, Allohdan qo'rqadigan qilmishlarining jazosi borligiga ishonadigan sofdil oshpaz xola va shunga o'xshash insonlar tasviri bilan asar ruhiyatga ta'sir qiladigan, har bir jumlasini har bir voqeasini o'qiganda inson o'ziga oyna tuta oladigan, harakatlarini mulohaza qila oladigan, yaxshilik va yomonlik kabi hislatlarni illatlardan ajrata oladigan darajada bitilgan.

"Shaytonvachchanning nayranglari" asari ilmiy tahliliga ko'chiladigan bo'lsa, ular quyidagicha:

Kompozitsiya (lot. "tuzib chiqish tartibga solish") - badiiy asardagi qismlar, obrazlar va badiiy vositalarning ma'lum bir g'oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi, ularning tasvirdagi mezoni va muvofiqligidir. Asarda ayni jihat shaytoni laynning Allohga isyoni va Odam bolalarini yo'ldan urishi, makr-u nayranglari bilan tuzog'iga kiritishidir.

Ekspozitsiya (lot. "tushuntirish") - syujetning kirish, boshlanish qismi, voqealar yuz beruvchi o'rin-joy, asar qahramonlarining xarakterini shakllantiruvchi ijtimoiy muhit va shart-sharoitlar tasviri. Asarning boshlang'ich voqeasi Shaytonvachchanning ayol kiyimi yengida tuzilishi bilan boshlanadi (yozuvchi bu o'rinda yeng ichida ish bitirmoq iborasini ustalik bilan qo'llagan). Ayolning ilmsizligi va qay bir ma'noda farosatsizlik oqibatida shaytonvachcha va uning onasi ko'chasida bayram bo'lishiga olib keladi.

Obraz keng ma'noda ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasi, tor ma'noda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosidir. Asarda yoritilgan obrazlarda bosh qahramon asosan shaytonvachcha bo'lsa, xoja va uning xotini, uch o'g'illari va shu o'rinda ijobiy obrazlar "Bismillo" xola, yangi kelgan oshpaz xola kabilar, salbiy obrazlar esa shifoxonada, bog'chada va bozorda uchraydigan ayrim shaytoni katta amaki, bolalarni haqqini yeyishdan qo'rqmaydigan eski oshpaz xotin va boshqalardir.

Konflikt (lot. "ixtilof, to'qnashuv") - asar syujeti asosida yotgan hayotiy ziddiyat. U dramatismni kuchaytiradi, voqealar rivojiga turki va keskinlik beradi. Xuddi

shunday,qahramonlarning shayton tuzog'iga tushib,bir-birni aldashi,yomonlik qilishi tashqi konflikt bo'lsa,ular ruhiyatidagi kamchiliklar,nafsigaga taslim bo'lishi kabi bir qator holatlar ichki konfliktga misol bo'la oladi.

Verner Mich "Inson atom bombasini yaratdi. Lekin hozirgacha hech bir sichqon qopqon yasash haqida o'ylab ko'rmagan"degan.Buning asarga qanday aloqasi bor?Shundayki,inson mushkul ahvolga tushganda yoki katta yomonlik qilganda,gunoh ish bo'lganda undan qutilish uchun birinchi aqliga murajaat qiladi.Najot yo'lini undan axtaradi.Eng so'nggi soniyalardagina Allohga qaytadi,qalbiga suyanadi.Musulmon inson bundan butunlay mustasnodir.Musulmon odam avvalo o'zida yaxshi tarbiya mujassam va bolasiga ham go'zal tarbiya bera oladigan bo'ladi.Tarbiyasida nuqsonlari bo'lganlar esa har qadamda oqsaydilar.Asli mohiyat unday emas,asli inson bundan mustasno.Zero,tarbiya haqida juda ko'plab fikrlar ham keltirilgan,xususan,Abdulla Avloniy "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas bir vazifadur"degan.Azaldan tarbiya haqida insonlar jon kuydirgan ekan,biz ham shu tarbiyani o'zimizda aks ettirishimiz joizdir.Asar haqida undagi voqealar haqida ko'plab fikrlar bildirish mumkin. Biroq ushbu asarni har bir inson o'zi mutolaa qilishini,uning chashmasidan oila davrasida o'tirib to'yib-to'yib ichishini tavsiya qilgan bo'lar edim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E.Malik.Shaytonvachchaning nayranglari(1-kitob).T.:Sharq,2013.-368b.
2. Sh.Sariyev.Abadiyot(Mukammal qo'llanma).T.:Regbooks.2020.
3. D.Quronov.Adabiyot nazariyasi asoslari.T.:Navoiy universiteti,2018.
4. N.Karimov va boshq.Adabiyot(9-sinflar uchun darslik).-T.:Ma'naviyat,2002.-234-bet.
5. N.Karimov va boshq.Adabiyot(11-sinflar uchun darslik).-T.:O'qituvchi,2004.-86-bet.
6. S.Ahmedov va boshq.Adabiyot(5-sinflar uchun darslik).-T.:Sharq,2007.-346-bet.
7. Q.Yo'ldoshev va boshq.Adabiyot(7-sinflar uchun darslik-majmua).-T.:Sharq,2007.-167-bet.